

**SHARIPOVA NARGIZAXON
ABDUQAXXOROVNA**



E-MAIL: (nar.kokand@gmail.com)

Kokand State University
Doctor of Philosophy in History,
Associate Professor

*Published under peer review:
Doctor of Sciences in History
(DSc), Professor,
Farmonov Rakhmon
Farmonovich*

**HISTORY OF EFFORTS TO ENHANCE WOMEN'S ACTIVITY
IN THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM**

**ИСТОРИЯ УСИЛИЙ ПО ПОВЫШЕНИЮ АКТИВНОСТИ
ЖЕНЩИН В СИСТЕМЕ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**XALQ TA'LIMI TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI
OSHIRISH UCHUN OLIB BORILGAN HARAKATLAR TARIXI**

Abstract. Women hold a special place in any society. The words of the wise, "If you educate a girl, you educate the whole family," call on women, who are active members of our society, to demonstrate their full potential even more vividly.

The Constitution of the Republic of Uzbekistan recognizes men and women as equal citizens. No one should be subjected to legal discrimination, and everyone has the right to find their place in society. However, many unresolved issues remain in the matter of gender equality. Based on archival materials, information from periodicals, and scientific literature, this article attempts to analyze the reforms aimed at increasing women's participation in the public education system during the 1960s-1980s and their outcomes. This article was prepared within the framework of the applied project of the Tashkent State University of Oriental Studies No. AL-7823051605 "Creating an electronic platform "Gender Relations in Eastern Countries (100 Most Famous Women of the East)".

Keywords: society, school, public education, teacher, family, order, reform, decision, gender

Аннотация. В любом обществе женщины занимают особое место. Слова мудрецов: "Если обучишь девочку, обучишь всю семью," призывают женщин, являющихся активными членами нашего общества, еще ярче проявлять весь свой потенциал.

В Конституции Республики Узбекистан мужчина и женщина признаются равноправными гражданами. Никто не должен подвергаться правовой дискриминации, и каждый имеет право найти свое место в обществе. Однако в вопросе гендерного равенства остается много нерешенных проблем. В статье на основе архивных материалов, сведений из периодических изданий и научной литературы предпринята попытка проанализировать реформы, направленные на повышение активности женщин в системе народного образования в 60-80-е годы XX века, и их результаты. Данная статья подготовлена в рамках прикладного проекта Ташкентского государственного университета востоковедения No AL-7823051605 "Создание электронной платформы "Гендерные отношения в странах Востока (100 самых известных женщин Востока)".

Ключевые слова: общество, школа, народное образование, учитель, семья, приказ, реформа, решение, гендер

Annotatsiya. Har qanday jamiyatda xotin-qizlarning alohida o'rni bor. Donishmandlarning "Agar qiz bolani o'qitsang, butun oilani o'qitgan bo'lasan" degan so'zlari zamiridagi ma'nolar, jamiyatimizning faol a'zolari bo'lgan xotin-qizlarni butun iqtidorini yanada kuchliroq namoyon etishga chorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida erkak-ayol teng huquqli fuqaro, deya e'tirof etiladi. Hech kim huquqiy jihatdan kamsitilmagan holda, jamiyatda o'z o'rnini topishga haqli. Ammo gender tenglik masalasida hal qilinmagan muammolar ko'p. Maqolada arxiv materiallari, davriy nashr va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar orqali XX asrning 60-80-yillarida xalq

ta'limi tizimida xotin-qizlarni faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar va ularning natijalarini tahlil qilishga harakat qilindi. Ushbu maqola Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining AL-7823051605-sonli "Sharq mamlakatlarida gender munosabatlari (Sharqning eng mashhur 100 ayoli)" elektron platformasini yaratish" nomli amaliy loyihasi doirasida tayyorlandi.

Tayanch iboralar: jamiyat, maktab, xalq ta'lim, o'qituvchi, oila, buyruq, islohot, qaror, gender

Kirish. 2023-2024 o'quv yili yakunidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra respublikadagi mavjud 10750 ta maktabning asosiy shtatida 547,7 ming nafar o'qituvchi ishlab, ularning sakson foizini xotin-qizlar tashkil etdi[1]. Xalq ta'limi tizimida xotin-qizlarning faoliyat yuritishi tabiiy holat deb qabul qilinishi, qadimdan farzand tarbiyasi bilan asosan ayollarning shug'ullanishi maktabda ham mazkur tendensiyaning davomiyligiga yo'l qo'ydi.

Gender tenglik masalalari – bu jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasidagi huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tenglikni ta'minlash, shuningdek, ularning imkoniyatlariga birday munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Jamiyatda doimiy ravishda gender tenglikka qaratilgan quyidagi muammolar mavjud:

1. **Ish o'rinlarida gender diskriminatsiyasi:** Ayollarning ishga qabul qilinishi, lavozimda ko'tarilish va oylik maoshi erkaklarga qaraganda pastroq bo'lishi mumkin;
2. **Oilada xotin-qizlarni ta'lim va bilim olish imkoniyatlarini cheklanishi;**
3. **Siyosiy va ijtimoiy ishtirok:** Ayollarning siyosiy faoliyati va rahbarlik rollarida erkaklarga nisbatan kamroq ishtirok etishi.

Maqsad va uni asoslash: Sovet hokimiyati yillarida bu kabi muammolarni hal etish uchun hukumat tomonidan maxsus qarorlar chiqarish, doimiy ravishda targ'ibot ishlarini olib borish talab qilindi. Xotin-qizlarni siyosiy hayotda va rahbarlik lavozimlariga tayinlanishlarida olib borilgan islohotlar o'z samarasini berdi. Jamiyatdagi ayol va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarni nazarda tutib, 1942-yilda o'g'il-qizlarning alohida tahsil olishlari haqida qaror chiqarildi. Mazkur qaror asosida xotin-qizlar uchun alohida pedagogik o'quv muassasalari ham tashkillandi. Oradan o'n bir yil o'tib, O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1954-yil 15-iyuldagi, Respublika Xalq ta'limi Ministrligining 1954-yil 19-iyulda qabul qilgan "O'g'il va qiz bolalarni birgalikda o'qitish" qarori[1.19] asosida umumiy ta'lim berila boshlandi.

Sovet hokimiyatining faoliyatida gender tenglik – ya'ni ayollar va erkaklarning huquqiy, ijtimoiy va ta'limdagi tengligi – muhim masala sifatida ko'tarildi. Oktabr inqilobidan so'ng boshlangan ayollarning ta'lim va jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan bir qator siyosiy islohotlar XX-asrning ikkinchi yarmida ham davom etdi. Bu islohotlar xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy o'rnini belgilash, iqtisodiy hayotdagi ishtirokini mustahkamlash uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan edi. Olib borilgan islohotlar natijasida ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar soni ortib bordi. Ular o'zlarining iqtisodiy yuksalishi, turli yutuqlarni qo'lga kiritish uchun harakat qildilar. Ammo jamiyatdagi an'anaviy qarashlar, xotin-qizlarni oilani parvarish qilishga va ijtimoiy hayotda qo'shimcha ishlarga bog'liqligi, ojiz jins vakillarini shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishini cheklab qo'ydi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng xotin-qizlarni ta'limga tortish, ularga nisbatan oiladagi munosabatni o'zgartirish uchun qator siyosiy tag'ribotlar amalga oshirilgan bo'lsa, 60-yillardan boshlab xalq ta'lim tizimi feminizatsiyalashib bordi. Buning bir qator ob'ektiv sabablari bor edi:

1. Jamiyatda bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanish ayol kishini vazifasi degan tushunchaning ustunligi faolligi oshayotgan xotin-qizlarni mazkur kasbni tanlashlarining omili bo'ldi. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining 98 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etdi. Shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 90 foizi va yuqori sinf o'qituvchilarining 50 foizdan oshig'i ayollardan iborat bo'ldi.

2. Oylik maosh taqsimotida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining maoshi nisbatan pastligi erkak o'qituvchilarni asosan yuqori sinflarda dars berishlariga va pedagogika bilim yurtlarini bitirib ham bemalol dars berish imkoniyati mavjudligi xotin-qizlarni mazkur sohani tanlashlariga asos bo'ldi. Rahbariyatdagi ma'sul lavozimlarning maoshi oddiy o'qituvchilikiga nisbatan deyarli ikki barobar yuqoriligi erkaklarni lavozimni egallashga bo'lgan intilishlarini oshirdi[24].

Ayniqsa ikkinchi jahon urushidan so'ng harbiy ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilishi natijasida harbiy ta'lim fani o'qituvchilari soni yanada ko'paytirildi. Harbiy ta'lim, jismoniy tarbiya, chizmachilik va matematika kabi fanlardan dars o'tayotgan o'qituvchilar tarkibini 60 foizdan oshig'ini erkaklar tashkil etardi. Yuqori sinflardagi tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash uchun ham ko'proq erkak o'qituvchilar talab qilinardi.

Ta'limda xotin-qizlar salmog'ini ortib borishi, ularning shaxsiy hayotidagi o'zgarishlarga ham sabab bo'ldi. O'qituvchi qizlarni kelin qilishga bo'lgan talab oshdi. O'qituvchi ayollarning obro'lari juda yaxshi bo'lgan. Aholining ziyoli qatlamiga mansub bo'lgan holda, ular "madaniyat tarqatuvchilar" hisoblangan[23].

Ta'limdagi xotin-qizlar salmog'ini oshirish va nazorat qilish maqsadida statistik hisobotlar qabul qilingan. Masalan Farg'ona oblasti Frunze (Beshariq) rayonidagi 1356 nafar o'qituvchining 726 nafari xotin-qizlar bo'lib, ulardan 10 nafari maktab direktori va 25 nafari maktabning boshqaruv sohasida ishlagan. Ular orasida 78 nafari partiya a'zosi va 17 nafari maktabning boshlang'ich partiya tashkilotini boshqargan[12. 32]. Respublikada nafaqat ta'lim, balki boshqa sohalarda ham xotin-qizlar salmog'ini orttirish maqsadida targ'ibot va rag'batlantirish ishlari olib borildi. 1970 yilda respublika xalq ta'limi tizimida 82 ming nafar xotin-qizlar ishlar edi. Bu ko'rsatkich maorif xodimlarining umumiy miqdorini 43 foizini tashkil qilgan[2. 15].

O'zbekistonda pedagogika yo'nalishidagi o'quv muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida xotin-qizlar ulushi yo'llar sayin ortib bordi. Agar 1960-1961 o'quv yilida ta'lim olayotgan talabalarning 47 foizini xotin-qizlar tashkil qilgan bo'lsa, 1970-1971 yillarda bu ko'rsatkich 50 foizni, 1980-1981 yillarda 57 foizni tashkil qilgan[3. 70].

Oddiy o'qituvchilar orasida xotin-qizlar ulushi ko'payishiga qaramay, rahbarlik lavozimlarini egallashga bo'lgan intilish kam edi. Albatta, bu holat mentalitet bilan bog'liq edi. Partiya qo'mitalarida xotin-qizlarni faollashtirish, hatto erkaklar safida ko'rishga intilish kuchayib bordi. Agar ikkinchi jahon urushi yillarida erkaklar kamligi sabab erkaklar bajaradigan og'ir ishlarda, qishloq xo'jalik texnikalarini haydashgacha bo'lgan kasb-hunarlarda xotin-qizlar ulushi ko'p bo'lsa, urushdan keyin yana gender masalalar asli holiga qayta boshladi. Xalq xo'jaligining turli sohalarida erkaklar ulushi ko'payib bordi. Qizlar katta bo'lishlari bilan o'qitmay qo'yish, erta turmushga berish, qo'sh xotinli holatlar hatto maorif xodimlari orasida ham ko'p uchradi. Mavzuni yoritish jarayoniga oydinlik kiritish maqsadida o'rganilgan arxiv manbalari, davriy nashrlarda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonda XX-asrning 50-60-yillarida gender masalalarida anchagina oqsoqlik borligini ko'rsatadi.

Maorif sohasidagi kam sonli rahbar ayollar orasida mahalliy millat vakillari deyarli yo'q edi. Ministrlk tomonidan hududlarda xotin-qizlarga bo'lgan munosabatlarni o'rganib tahlil qilindi va O'zbekiston Respublikasi Maorif Ministrligining 1960-yil 22-apreldagi "Xotin-qizlarni rahbarlik ishlariga jalb qilish chora-tadbirlarini yaxshilash to'g'risida"gi 97-son buyrug'i qabul qilindi. Arxiv

hujjatlarida mazkur buyruq asosida Toshkent oblasti xalq ta'limi boshqarmasining 1960-yil 24-maydagi qabul qilingan 437-sonli buyrug'i saqlangan. Buyruqda qayd etilishicha, Toshkent oblastida faoliyat yuritayotgan 12 270 nafar o'qituvchining 5 587 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. Ammo mavjud 222 ta umumta'lim maktab direktorlarining faqat 25 nafari, 396 ta yetti yillik maktab rahbarlarin 46 nafari, 2 284 ta boshlang'ich maktab rahbarini 29 nafari xotin-qizlardan iborat bo'lgan. Oblast xalq ta'lim tizimidagi 1 639 nafar rahbar xodimlaridan 250 nafari ayol bo'lib, ulardan faqatgina 89 nafari mahalliy millat vakillari bo'lgan[6. 76]

Shuningdek, direktor yordamchilari orasida ham xotin-qizlar kam bo'lib, oblast xalq ta'limi tizimidagi 1639 nafar rahbar xodimlarning 250 nafari ayol kishi bo'lib, 89 nafari mahalliy millat vakillarini tashkil etdi. 1961-1962 o'quv yili uchun rayonlarning xalq ta'limi bo'limlarining ma'sul lavozimlariga xotin-qizlardan layoqatlilarini tayinlash va bu ko'rsatkich 50 foizdan kam bo'lmasligi topshirildi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi: Shu kabi ko'rsatkichlar respublika miqyosida umumlashtirilib, oblastlarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar soni nazorat qilindi. Ularni rag'batlantirish faolligni oshirishga hissa qo'shadi deb hisoblandi. Respublika maktablarida faoliyat olib borgan 31 694 nafar xotin-qizlarning 2 338 nafari turli darajadagi orden va medallar bilan taqdirlangan bo'lib, faqatgina 436 nafari mahalliy millat vakillari bo'lgan. Xususan ta'lim boshqaruvi ishlarida 1700 nafar xotin-qizlar ishlashi aniqlanib, hudud boshqarma boshliqlari masalaga yetarli darajada ahamiyat qaratmaganligi tanqid qilindi. Andijon oblastidagi 214 ta maktabning birortasida xotin-qizlar rahbarlik lavozimida ishlamagan. Xuddi shu kabi Farg'ona oblastida ham birorta ayol xalq ta'limida rahbarlik lavozimiga qo'yilmagan.

Toshkent oblastida ham shunday holat kuzatilgan. Bekobod shahri, Angren, Yangiyer shaharlari, Oqqo'rg'on, Bo'stonliq, Yangiyo'l, Sirdaryo rayonlarida maktab direktorlari orasida birorta ham ayol kishi bo'lmagan. Rayon va shahar xalq ta'limi bo'limlarida mavjud 44 nafar ish yurituvchilarning (metodist) faqat 5 kishi ayol kishi edi. Metod kabinet boshliqlari orasida 7 nafar ayol bo'lib, ular ham o'zbek bo'lmagan. Oblastda 266 boshlang'ich maktablar mavjud bo'lib, rahbarlarni 14 foizini ayollar tashkil etdi xolos. Shuningdek 238 ta o'rta maktab direktorlaridan 35 tasi xotin-qizlar va ularning 20 nafari o'zbek millatidan bo'lgan. Rahbarlik lavozimlariga zahiraga olinganlar ro'yxatida 1185 nafar nomzod bo'lib, ularning 413 nafari xotin-qizlar tashkil etdi. Ammo ular orasida o'zbeklar oz edi (168 nafar) [6. 19].

Shu sababli oblastdagi xotin-qizlarni rahbar lavozimlariga ko'tarish maqsadida, ishlab turgan maktab direktorlari va xalq ta'limi bo'limlaridagi kadrlar masalasi o'rganilib, talabga javob bermaydiganlarining o'rniga tayinlashda zahiraga olingan xodimlar orasidan ayollarga ustunlik berilgan. Bundan tashqari lavozimga qo'yilgan xotin-qizlarni turar-joy bilan ta'minlash masalalari ham alohida o'rganildi.

Xotin-qizlarni rahbarlik lavozimiga tortish masalasida ma'lumoti to'g'ri kelmasada, do'ppisini ol desa, kallasini olish qabilidagi ishlar ham bo'lgan. Masalan, mazkur buyruqdan keyin lavozimga tayinlangan Toshkent oblast Bo'ka rayonidagi 32-maktab direktori Kechina umuman pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan[7. 199].

O'zbekiston Respublikasi Maorif Ministrligining 1960-yil 22-apreldagi "Xotin-qizlarni rahbarlik ishlariga jalb qilish chora-tadbirlarini yaxshilash to'g'risida"gi 97-son buyrug'ining bajarilishi Andijon oblastida juda sekin ketgan. Maorif boshqarmasi boshlig'i Gaman buyruq chiqqaniga ikki oy o'tganiga qaramay, hech qanday amaliy ish qilmagan. Bundan tashqari oblast o'qituvchilari orasida ichkilikbozlik, bezorilik, ko'pxotinlik, feodal munosabat, voyaga yetmagan qizga uylanish kabi jinoyatlar ko'paygan. Xususan, oblastda 1950-1951 o'quv yilida 1-sinfqa qabul

qilingan 9 098 nafar o'zbek qizdan 1043 nafarigina 10-sinfni bitirgan. 1958-1959 o'quv yilida voyaga yetmagan 558 nafar, 1959-1960 o'quv yilida esa 209 nafar voyaga yetmagan qiz turmushga berib yuborilgan.

O'quvchi qizlar maktabni tugatsagina pedagogik o'quv yurtlariga kirishlari va o'qituvchilik kasbini egallashlari mumkin edi. Buni aksi o'laroq erta turmushga berish holatlari barcha oblastlarda uchrab turdi. Masalan, Samarqand oblast xalq maorifi boshqarma boshlig'ining 1963-yil 13-fevralda qabul qilingan 23-son buyrug'ida Xatirchi rayon Langar qishlog'idagi 30-maktabning 5 nafar o'quvchi qizi – Yu.Mirzaqulova 9-sinf, M.Baymatova(10-sinf), Z.Danieva(9-sinf), I.Muxammadieva (8-sinf), L.Qayumova(8-sinf), K.Sulaymonova(9-sinf)lar maktabda o'qib turgan vaqtdayoq turmushga uzatilib, o'qishga kelmay qo'ygan[10. 19].

Jamiyat va ta'limda xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 1963-yil 27-fevralda O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Xotin-qizlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ularni ijtimoiy-foydali ishlarga jalb etishni kuchaytirish va feodal-boy munosabatlari qoldiqlariga barham berish haqida"gi A-47-sonli buyrug'i qabul qilindi. Mazkur buyruq asosida Samarqand oblast xalq ta'lim boshqarmasi boshlig'i qabul qilgan 30-son buyrug'ida o'qituvchi xotin-qizlarga turar-joy masalasi ijobiy hal etib berilmayotganligi oqibatida pedagoglar yetishmaslik muammosi kelib chiqayotganligi, shuningdek, qizlarni erta turmushga berish omili Bulung'ur rayonida 634, Ishtixon rayonidagi 578 nafar o'quvchi qizlarni o'qishga jalb qilinmaganligiga sabab bo'lganligi qayd etilgan. Shu sababli barcha maktab yoshidagi qizlarni ro'yxatga olish va ularning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalari borligini tekshirish, ota-onalar orasida tushuntirish ishlari olib borib, maktab-internatlarda qizlar uchun alohida sharoitlar yaratish, savodi chiqmagan qizlarni kechki maktablarga jalb qilib, kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish topshirildi [9. 119].

Samarqand oblastida xalq maorifida xotin-qizlar ulushi past edi. Jumladan, 1967-1968 o'quv yilida ishlayotgan 18 668 nafar o'qituvchilarning 7 027 nafari va 290 nafar maktab direktorlaridan 52 nafari ayol kishi bo'lgan[9. 149].

Buxoroda ham gender tenglik masalasi dolzarb bo'ldi. Oblastning qishloq maktablarida 11 318 o'qituvchi ishlab, ulardan 3 032 tasi ayollar bo'lgan xolos [5. 146]. Xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga ko'tarish haqida tez-tez topshiriqlar berib borildi. 1969-yilda xalq ta'limida xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga ko'tarish bo'yicha navbatdagi topshiriq ijrosining hisobotida qayd etilishicha, Toshkent oblastida faoliyat olib borayotgan 16 661 nafar o'qituvchining 9606 nafari, ya'ni 50 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etgan. Bekobod rayonida 55 maktab direktoridan 2 nafari, Bo'ka rayonida 81 nafardan 7 nafari, Yangiyo'l rayonida esa 110 nafardan atigi 10 nafari ayollar bo'lgan[6. 80-84]

Jizzax oblastining G'allaorol rayonida 29 ta o'rta, 31 ta sakkiz yillik, 4 ta boshlang'ich maktablarda jami 1029 nafar o'qituvchi faoliyat yuritib, ularning 266 nafari xotin-qizlar bo'lgan xolos. Oblastda 405 ta maktabning direktor va o'rinbosarlaridan 32 nafari ayollar edi[11. 13-varaq].

XX-asrning 70-yillaridan boshlab, ta'limda xotin-qizlar ko'payib bordi. Shuningdek, rahbarlar orasida ishlayotgan, deputatlar, taqdirlanganlar orasidagi xotin-qizlarni namuna qilib keltirilishi, targ'ibot qilinishida "Saodat" jurnali alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ayollarni rag'batlantirib borish ham avj oldi. 1978-yilda xotin-qizlardan 389 kishi "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" degan unvonga ega bo'ldi. 250 ayol "SSSR Xalq Maorifi a'lochisi" va 6875 ayol "O'zbekiston SSR Xalq Maorifi a'lochisi" maqomini oldi. 1980 yilda ayollardan 1243 nafari maktab direktori, 3125 nafari direktor o'rinbosari lavozimlarida ishladi[13. 13-16].

Albatta bolani jamiyatga qo'shishda, tarbiyalashda erkagu-ayolning o'ziga yarasha vazifasi bor. Agar, erkak o'qituvchilar tartib-intizom, qattiqqo'llik, erkaklik xususiyatlari timsoli bo'lsa, xotin-

qizlar nafislik, go'zallik ramzi sifatida qabul qilindi. Lekin 1985-1990 yillarga kelib, respublikada yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, oiladagi moddiy yetishmovchiliklar oqibatida erkaklar maktabni tashlab, boshqa ishlarga o'tib keta boshladi. Oqibatda maktab jamoatchilik ishlari, o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish to'lig'icha ayollar zimmasiga yuklatildi. Maktabdagi qattiqqo'llik, intizom bo'shab ketganligi sababli bolalar tarbiyasida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Pedagogika institutlari talabalarining deyarli 50 foizini xotin-qizlar tashkil qildi. 1990 yilda o'quv yurtlarini bitirib ish boshlagan o'qituvchi kadrlarning 24 545 tasi ayollar bo'lsa, 1980 yilda bu ko'rsatkich 20 401 ta bo'lgan[3. 13].

Davriy nashrlarda ba'zi mualliflar tomonidan ayollarning o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullanishiga salbiy fikr bildirilgan. "O'qituvchilik o'ta fidokorlikni talab qiladi. O'qituvchilik ayollarga xos kasb deyilmoqda. Xo'sh nima uchun? Ayollar turmushga chiqadi, uy-ro'zg'or ishlariga shoshadi. Ozgina ishlab tug'ruq ta'tiliga chiqib ketadi. Ta'tildan qaytgach yosh bolasi kasal bo'lib, kasallik varaqasiga chiqadi. Oqibatda ayol o'z ustida ishlashga vaqt topa olmaydi. Bilim darajasi ham shunga yarasha bo'ladi. Darslar uzuq-yuluq bo'lib qolmoqda. Oqibatda o'quvchi bilimsiz qoladi, jamiyatni rivoji qanday bo'ladi?"[14. 3] degan fikrlar bildirilgan. Lekin o'qituvchi ayollar bilan suhbat jarayonida ular dam olishdan kechib bo'lsada, o'z ustida ishlashga vaqt topganliklarini aytishdi[22. 23].

Ayol o'qituvchi kechgacha ko'rgazmali qurol tayyorlashi, daftar tekshirishi, konspekt yozishi, yangi programma asosida biron-bir asarni o'qishi kerak. Buning ustiga oilada onalik, rafiqqa vazifasini imkoniyati darajasida bajarishi uchun vaqt yetishmay qolgan holatlar ko'p uchradi. Qishloq hududlarida faoliyat yuritayotgan aksariyat xotin-qiz pedagoglarda o'z ustida ishlash uchun vaqt yetishmadi. Kechalari dam olishdan kechib, darsga tayyorlanadi.

1990-yil 4-mayda Respublika Prezidenti I.Karimovning "Ko'p bolali onalarga to'lanadigan nafaqa miqdorini ko'paytirish haqida"gi qarori qabul qilindi. 1 iyundan kuchga kirgan qarorga asosan 5 tadan ko'p farzandi bo'lgan onalarga to'lanadigan nafaqani ikki barobarga oshirildi. Natijada ko'p bolali o'qituvchi ayollarning oylik maoshlariga ma'lum mablag' qo'shildi[15. 1].

Ong va erkinlikka intilish davri boshlangan "Qayta qurish" siyosatidan keyin davriy matbuotlarda chop etila boshlangan maqolalarda ta'limdagi gender tenglik masalalari ham ko'tarildi. 80-yillarning ikkinchi yarmidan ta'limda erkaklar soni kamayishi intizom va qat'iylikni yetishmaslik kabi omillarni keltirib chiqara boshladi. Bu borada uzoq yillar ta'limda ishlagan faollar tomonidan maktabda erkak o'qituvchilarning ko'pligi yoshlar o'rtasidagi jinoyatlarni keskin kamayishiga olib kelishi, erkak kishini kechgacha maktabda band bo'lishga, o'quvchi bilan ko'proq ishlashga imkoniyati borligi ta'kidlanadi.

XX-asrning 50-60-yillarda maktablarda qattiqqo'l, o'z kasbini ustasi bo'lgan erkaklarni ko'pligi o'quvchilarni yaxshi o'qishiga, oliy ta'limga qiynalmay kira olishiga hissa qo'shgan. Ayollarni oilasidagi bolalarini ko'proq tarbiya qilishlariga imkoniyat yaratib berilishi, chunki ayollar oila tarbiyasida asosiy rol o'ynaydi. Shu tufayli maktablarda ishlaydigan ayollarga imkoni boricha qulay sharoit yaratib berib, yuqori sinflarda ko'proq erkaklar ishlashiga harakat qilishi kerak degan takliflar ilgari surildi[16. 1].

Shu bilan birga 90-yillarning davriy nashrlarida tez-tez milliy maktablar masalasi ko'tarila boshlandi[17. 18. 19]. O'g'il va qiz bolalarni alohida ajratib o'qitish tajribasi 40-50-yillarda sinab ko'rilganligi va ikki jins vakillarining axloq va o'zlashtirish jihatidan o'zgarishlar bo'lishi muhokama qilindi. Shuningdek bu maktablarda nafaqat alohida o'qitish, balki milliylikni o'rgatish, dasturlarni milliylashtirish taklif etildi.

1987 yilda maktab o'quv dasturiga "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi" predmeti kiritildi. Dasturga kiritilgan mavzularda ayol va erkak anatomiyasiga tegishli ma'lumotlar kiritilganligi bois, 9-10-sinflarga mo'jallangan bu o'quv kursini o'tishda o'g'il va qizlarni alohida o'qitish va darslarni ayol o'qituvchilar tomonidan o'tish taklif qilindi. Shu bilan birga balog'atga yetayotgan o'smirmi hayotga tayyorlash, jismoniy va ruhiy, ma'naviy tayyorgarlikni milliy mentalitetdan kelib chiqib dasturga kiritish lozimligi taklif qilindi[20. 3].

Erkak o'qituvchilar o'z tajribalaridan kelib chiqib, ayol o'qituvchilarga nisbatan, ham ideal o'qituvchi, ham ideal ona bo'lish mumkin emasligi, xotin-qizlar uchun maktabda sharoitni yaxshilash lozimligini taklif qildilar. Masalan, Xorazm oblasti markazida joylashgan katta maktabda 250 nafar o'qituvchi ishlab, 120 nafari ayol o'qituvchi bo'lgan. Har yili ulardan 15-20 nafari tug'ruq ta'tiliga chiqqan. Ta'tildan qaytib ish boshlagan ayolning farzandi kasal bo'lsa, yana dars qoldirishi mumkinligi dars sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin edi[21. 3]. Ammo hayotda yetakchilik roli uchun doimiy ravishda kurashib kelgan ikki jins o'rtasidagi bu bahs ikki tarafdan keltiriladigan asosli sabablar bilan hech qachon yakuniga yetmaydi.

Yakuniy qism: Darhaqiqat, sovet davri xalq ta'limi tizimida xotin-qizlarning ahamiyati katta bo'ldi. Kelajak avlodga ta'lim berish, ularni to'g'ri yo'lga solish borasida ularning o'rni beqiyos. Ammo shuning bilan birga ularni ta'lim sohasidagi mehnatining ahamiyatini keng tarqatish va ularning ilmiy va pedagogik qobiliyatlarini tan olish jamiyatdagi stereotiplarni yo'qotishga yordam berar edi. Ko'pchilik xotin-qizlar, ayniqsa, oilaviy va bola parvarishi bilan bog'liq vazifalar tufayli ta'lim sohasida ishlashda qiyinchiliklarga duch keldilar. O'qituvchi ayollarga yaxshi ish shartlari va jamiyatda qadrlanish hissini ta'minlash, shu jumladan, jismoniy va ruhiy qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini ko'proq targ'ib qilishga yordam berishi mumkin edi.

Xotin-qizlarning katta qismi jamiyat taraqqiyotining har qanday davrida moliyaviy-iqtisodiy sohalarida faol bo'la olmadi. Ular asosan ijtimoiy sohada o'z o'rniga ega bo'la oldi. Ishga qabul qilishda, ish jarayonida gender nomutanosiblik oshkora va yashirin shakllarda hamisha mavjud bo'ldi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Қодиров И. Народное образование в Узбекской ССР за 30 лет. – Ташкент, 1954. – С 126/ 19
2. Турғунов Э. Педагогическое образование в Узбекской ССР послевоенные годы (1946-1970 гг). Автореферат на дисс.соис.ист.наук.– Москва, 1973. – с 15
3. Кувватов Н.Б. Подготовка и воспитание педагогических кадров в Узбекистане (1980-1990 гг.). Дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 70 бет
4. O'zbekiston Milliy Arxivi, 2454-fond, 6-ro'yxat, 1243-ish, 123-124-varaq
5. O'zbekiston Milliy Arxivi, 2582-fond, 1-ro'yxat, 2489-ish, 146-varaq
6. Toshkent Viloyat Davlat Arxivi, 530-fond, 1-ro'yxat, 1435-ish, 76-varaq
7. Toshkent Viloyat Davlat Arxivi, 870-fond, 1-ro'yxat, 349-ish, 199-varaq
8. Samarqand Viloyat Davlat Arxivi, 942-fond, 4-ro'yxat, 549-ish, 142-varaq
9. Samarqand Viloyat Davlat Arxivi, 942-fond, 4-ro'yxat, 119-ish, 193-varaq
10. Samarqand Viloyat Davlat Arxivi, 942-fond, 4-ro'yxat, 468-ish, 19-varaq
11. Jizzax Viloyat Davlat Arxivi, 13-fond, 1-ro'yxat, 655-ish, 13-varaq
12. F.Abdullaeva. O'zbekistonda xotin-qizlar maorifi.// Sovet maktabi. 1975 yil №10. – 32 b.
13. Maorifimiz jonkuyarlari.//Sovet maktabi. – 1978. – № 3. – 13-16 b.
14. Javobgarlik. G'.Xotamov.// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1986 – 10 oktabr. – 3 b.
15. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Prezidentining farmoni.//O'qituvchilar gazetasi. – 1991 yil 5 may. – 1 b.

16. Yo'ldoshev H. Qaydasiz, erkak muallimlar//O'qituvchilar gazetasi. - 1990 yil 10 oktabr. – 1-b.
17. Murodov M. Milliy maktab – muammolar ummoni.//O'qituvchilar gazetasi. – 1991 yil 20 aprel – 3 b.
18. Jilovov J. Ta'limdagi jumboqlar.// O'qituvchilar gazetasi. – 1991 yil 30 may. – 1 b.
19. To'xliiev B. Milliy maktab zarur.//O'qituvchilar gazetasi. – 1991 yil 11 iyul. – 1 b.
20. Fikrlar va takliflar.//O'qituvchilar gazetasi. – 1988 yil 23 dekabr. – 3 b.
21. Javobgarlik.//O'qituvchilar gazetasi. – 1987 yil 9 yanvar. – 3-bet
22. Qodirova Turg'unoy bilan shaxsiy suhbat materiallari (1949 yilda tug'ilgan, Namangan viloyati Kosonsoy tumani Tagjoy qishlog'ida yashaydi) 2024 yil 27 mayda suhbatlashildi;
23. Asqarova Salomatxon bilan shaxsiy suhbat materiallari (1940 yilda tug'ilgan, Andijon shahar 4-mikrorayon M..Behbudiy ko'chasi 10 uyda yashaydi) 2024 yil 13 martda suhbatlashildi.
24. Toshpo'latov Muhammadsodiq bilan shaxsiy suhbat materiallari.(1946 yilda tug'ilgan, Qo'qon shahar Toshkent ko'chasi 60 uyda yashaydi) 2023 yil 13 aprelda suhbatlashildi
25. <https://api.siat.stat.uz/media/uploads/>